



Feruza JUMAYEVA,

Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti, PhD

DSc, dotsent S.Zokirova taqrizi asosida

## DEVELOPMENT OF THE MEANING OF THE WORD: DISCOURSE-SYNERGETIC ANALYSIS

### Annotation

In this article, the development of meaning, the formation of polysemous and homonymous words and their differences are studied on the basis of discursive-synergistic analysis.

**Key words:** Word, meaning, sememe, sema, polysemy, homonymy, enantiosemey, metaphor, metonymy, synecdoche, function, discursive-synergistic analysis, fluctuation, bifurcation.

## РАЗВИТИЕ ЗНАЧЕНИЯ СЛОВА: ДИСКУРСНО-СИНЕРГЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

### Аннотация

В данной статье развитие значения, образование многозначных и омонимичных слов и их различия изучаются на основе дискурсивно-синергического анализа.

**Ключевые слова:** Слово, значение, семема, сема, полисемия, омонимия, энантиосемия, метафора, метонимия, синекдоха, функция, дискурсивно-синергический анализ, флюктуация, бифуркация.

## SO'ZNING MA'NO TARAQQIYOTI: DISKURSIV-SINERGETIK TAHLIL

### Annotatsiya

Ushbu maqolada ma'no taraqqiyoti, ko'p ma'noli va omonim so'zlarning hosil bo'lishi va farqli jihatlari diskursiv-sinergetik tahlil asosida o'r ganilgan.

**Kalit so'zlar:** So'z, ma'no, semema, sema, polisemya, omonimiya, enantiosemia, metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik, diskursiv-sinergetik tahlil, fluktuatsiya, bifurkatsiya.

**Kirish.** Tabiiy til tashqi va ichki ta'sirlar natijasida doimo o'zgarishda bo'ladi. Til shu tilni o'zlashtirayotgan har bir inson tafakkuriga ta'sir etadi. Tafakkur faoliyatining asosiga aylanadi. Bilim egallash, fikr yuritish til asosida amalga oshadi. Har bir inson o'z bilim doirasida til rivojiga ta'sir etadi va bunday tashqi ta'sirlar til tizimida beqarorlik, tartibsizlikning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Tashqi kuch, ya'ni inson omili ta'sirida til tizimida hosil bo'lgan tartibsizlik ichki kuchlarni yaratadi, ichki kuch tartibsizlikdan tartiblilikka ko'chish jarayonlariga tasin etadi, shunga ko'ra til tizimi o'z-o'zidan tashkillanish xususiyatiga ega bo'ladi. Bu jarayonlar tadqiqi til tizimida kechadigan fluktuatsiya, bifurkatsiya, entiropiyani o'rganish zaruratini tug'diradi. Til egalarining tafakkur tarziga xos o'zgarishlar til tizimida nomuvozanalikni hosil qiladi. Buning natijasida til tizimida ro'y beradigan tartibsizlik va undan tartiblilikka o'tish jarayoni til tizimining o'z-o'zidan tashkillanish qobiliyatiga ega ekanligini bildiradi. Shu bois til taraqqiyotida muhim o'ringa ega bo'lgan so'zni, uning ma'noviy qurilishi: shakllanishi rivojlanishini tadqiqi etishda diskursiv-sinergetik tahlilga tayanish so'z tarkibi, ma'no strukturasi va undagi o'zgarishlar asosini keng doirada aniqlash, tasavvur qilish, tavsiflash imkonini beradi.

Til egalarining to'plagan bilimlari so'z ma'nosida aks etadi. Inson borliqdagi narsa-hodisalar tavsifini va ularga munosabatini, hissiyotlarini so'z orqali ifodalaydi. So'z nomlash vazifasiga ega. O'xshashlik, aloqadorlik asosida bir qancha narsa-hodisalarga bir xil nom berilishi ko'p ma'noli so'zlarning hosil bo'lishiga turki beradi. M., odamning qulog'i – qozonning qulog'i birikmasida qulog so'zi ikkita shaklan o'xshash narsani nomlaydi. O'xshashlik asosida ma'no ko'chirilishi tilshunoslikda metafora deb o'rganiladi. Ba'zan so'z nomlash vazifasi bilan birga sub'ektiv munosabat bildirish vazifani ham bajaradi. M., munosabat bildirish: gapni cho'zdi, daraja ifodalash: tosh qurt ("juda" semasi mavjud), uslubiy bo'yoq ifodalash: umrim bahori, gul yuzli, baho

ifodalash: jodugar odam va h. z. Narsa-hodisalar qiyosida o'xshashlik yoki qarama-qarshiliklarni aniqlash va ularni bir nom bilan ifodalash ko'p ma'noli so'zlarni hosil qiladi. Bir nom ostida birlashgan ma'nolarning bir-biriga ta'siri ularning yaqin munosabatda bir butunlikni hosil qilishi yoki bir-biridan ajrab alohidalanib ketishiga sabab bo'ladi. Yaqinlik munosabati polisemiyani hosil qilsa, uzoqlashish, ajralish natijasida omonimiya sodir bo'ladi. Polisemiyada ma'noviy bog'liqlik asosan o'xshashlik, aloqadorlik, vazifadoshlik, butun-qism munosabati natijasida hosil bo'lishi ma'lum. Metonimiya ma'nolarni bir nom ostida birlashuvini ta'minlash bilan birga nutqni qisqa va ixcham shaklda ifodalash ("O'tkan kunlar" asarini o'qidim. "O'tkan kunlar"ni o'qidim.), obrazli ifodalash (navbatim anavi ko'zoynakdan keyin), bo'rttirish, ta'kidlab, darajalab ifodalash (muzdayidan bering) imkonini beradi. Narsalarning kashf etilishi, yaratishi, ishlab chiqilishi natijasida ham tilda tushunchalar ortadi va so'zning ma'no tarkibi kengayadi. M., "o'simlik nomi shu o'simlik mevasidan yoki boshqa biror qismidan tayyorlangan mahsulotga ko'chiriladi: muskat (uzumning bir navi) – muskat (shu uzum navidan tayyorlangan vino)"[1]. Metonimiyaning hosil bo'lishida sintaktik qurilmalardagi o'zgarishlarning ham o'rni katta. Gap tarkibida ellipsiyaga uchrangan bo'lak o'zi bog'langan so'zning ma'no tarkibiga qo'shimcha bir ma'no sifatida ko'chadi va uni ko'p ma'noli so'zga aylantiradi. M., achchiqdan keltir jumlasida achchiqdan so'zi ham "mazata'm", ham "taom, yoki biror yeydigan narsa" ma'nosini bildirib turibdi: Achchiq taomdan keltir. Bunday qo'llanishlar so'zning bir turkumdan boshqasiga ko'chishi, omonimlarning hosil bo'lishiga sabab bo'ladi. M., Yupqa pishtirdik. Yupqa so'zi "xamirni yupqa qilib yoyib pishiriladigan taom"ni bildiradi. Yupqa (sifat), yupqa (ot) so'zlar o'rtasida shakldoshlik hosil bo'lgan. Bunga misol qilib yana malla so'zini keltirishimiz mumkin: malla (sifat), malla (ot). M.: Bular uchun isrof bo'lmish, esiz, afsus, Bir doka salsa-yu o'tiz

qarich malla. (Hamza. Tanlangan asarlar) Demak, ellipsiya ta'sirida bir so'zning boshqa bir so'z tarkibiga ma'no bo'lib ko'chishi polisemiya va omonimiyanı hosil qiladi. Bunday ko'chma ma'no so'z tarkibida noturg'un bo'lsa, polisemiya, turg'un holatda joylashib qolsa, omonimiya hosil bo'ladi. M., achchiq taomdan keltir – achchiqdan keltir gaplari misolda aytish mumkinki, achchiqdan keltir gapida achchiq so'zining ma'no tarkibiga "taom" ma'nosi ko'chgan, ammo uning joylashuvi noturg'un, qotib qolgan emas, shunga ko'ra bu ma'no achchiq so'zining asosiy ma'nosi emas, ko'chma ma'nosi hisoblanadi. Bunday qo'shiluvda belgi (B) ma'nosi narsa (N) ma'nosidan ustunlik qiladi B>N. Yupqa pishirdik gapida yupqa so'zining tarkibiga ko'chgan "taom" semasi turg'un joylashgan bo'lib, shu so'zning bosh ma'nosiga aylangan. Bunday ma'noviy qorishmada "narsa" ma'nosi ustunlik qiladi (N>B) va leksik-grammatik ma'nodagi bunday o'zgarish, qorishuv boshqa bir yangi ma'noning hosil bo'lishiga sabab bo'lgan. Natijada yupqa so'zi omonim so'zga aylangan. So'z ma'nolari grammemalar ta'sirida o'zgarishga uchraydi. So'z turli sintaktik qurilmalar tarkibiga grammatik semalar ta'sirida yangidan yangi ma'no jilolarini namoyon qiladi. Xususan, leksik ma'no grammatik ma'no ta'sirida ba'zan o'zgarishga uchraydi, tarkiban bo'linib, polisemiya, omonimiyanı hosil qiladi. Demak, ellipsis ham so'z ma'nosining tarkiban kengayishida muhim omillardan biri sanaladi. Bunda ma'no ko'chishi, asosan, o'xshashlik, aloqadorlik asosida yuz beradi. Masalan: tosh qurt (tosh kabi qattiq qurt) – o'xshashlik asosida. Bir qop oldim (bir qop un oldim) – aloqadorlik asosida hosil bo'lgan.

Ba'zan borliqdagi bir butun narsa va uning bir qismi tilda bir nom bilan ataladi. Bu hodisa sinekdoxa deb o'rganiladi. Sinekdoxa qismning nomini butunga, butunning nomini qismga ko'chirish orqali hosil bo'ladi. Gohida uy ham, uning kirish-chiqish uchun mo'ljallangan qismi ham eshik deb nomlanadi. M., u eshikka bormayman (eshikni qo'llash orqali "uy" semasi ifodalangan). Bosh so'zi uning qismlari bo'lgan ko'z, soch kabilarni qayta nomlaydi. M., qora boshim oqardi (bosh leksemasini qo'llash orqali "soch" semasi ifodalangan). Ayrim so'zlar ham butunni, ham qismni nomlaydi. M., qo'l so'zi "odam" (butun) va "panja", "barmoq" (qism) ma'nolarini ham bildiradi. Qo'l so'zining bosh ma'nosi lug'atda[4] "odamning barmoq uchlardan yelkasigacha bo'lgan qismi, a'zosi" deb izohlangan. Unga ayrim qo'llar yordam berdi gapida qo'l so'zi butunni, ya'ni "odam" semasini ifodalagan. Yo'ldosh orqadan asta kelib, Elmurodning ko'zini ikki qo'li bilan berkitdi. (Shuhrat. Shinelli yillar) misolda qo'l so'zi qismni, ya'ni "panja" semasini bildirgan. Qo'lini kesib oldi jumlasida esa "barmoq" semasini anglatgan deyishimiz mumkin. Ayrim so'zlar bitta jumlaning o'zida ham butunni, ham qismni ifodalashi mumkin. M., o'rik so'zi "daraxt", "meva" "danak", "ko'chat" ma'nolariga ega. O'rik so'zi orqali kimdir birlamchi mevani tushunsa, kimdir daraxtni tushunadi. Lug'atda[4] da o'rik so'zining ikkita ma'nosi berilgan bo'lib, birinchi ma'nosi "guli oq va pushti, mevasi esa oqish, sarg'ish, qizg'ish ranglarda bo'ladigan yirik daraxt" ikkinchi ma'nosi "shu daraxtning danakli mevasi" deb izohlangan. O'rik guli deyilganda "daraxt" ma'nosi, o'rik murabbo deyilganda "meva" ma'nosi tushuniladi. O'rik ekdk gapida o'rik so'zi "daraxt" (butun) ma'nosini bildirganda butunning nomi orqali qism ma'nosi, ya'ni "danak", "ko'chat" tushuniladi, "meva" ma'nosini bildirganda shu mevaning qismi va butunini anglatuvchi "danak" (qism), "ko'chat" (butun) ma'nolari anglashiladi. O'rik so'zining butun va qismning nomi sifatida ikki xil idrok etilishi bir shakl ostida ikki ma'nuning birlashishi va ikkiga ajralib rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Ma'no tarkibidagi o'zgarishlarga sabab bo'luchni omillardan yana biri nutq ohanggi hisoblanadi. Ayniqsa so'z ma'nosining qarama-qarshi tomonga o'zgarishida ohangning

ta'siri katta. Kinoya ohangi so'z tarkibini uning ma'nosiga qarama-qarshi, zid bo'lgan yangi bir ma'no bilan kengaytiradi. Natijada ko'p ma'noli so'z hosil bo'ladi yoki ko'p ma'noli so'zning tarkibi yana bitta ma'no bilan ortadi. Kinoya – so'zlarni teskarri ma'noda, ohangda qo'llash orqali hosil qilinadi. M., Ravshan juda "bilimdon" gapida bilimdon leksemasi ko'chma semema ifodalaydi va "ilmsiz", "ilmsiz" semalariga ega bo'ladi. Ravshan bilimdon gapida esa bosh sememasida qo'llangan. O'z va ko'chma sememalar o'rtasida "ilml", "ilmsiz" antonim semalar yuzaga chiqmoqda. Polisemem leksemaning semalari yuzaga chiqmoqda. Polisemem leksemaning semalari doirasidagi bunday antonimlik munosabati enantiosemiya deb yuritiladi.

Vazifasi o'xshash bo'lgan narsa-hodisalarga bir xil nom berilishi tilda vazofadoshlik asosida ko'chma ma'no hosil qilinishi deb o'rganiladi. M., Odamning ko'zi – derazaning ko'zi, qushning qanoti – samalyotning qanoti va h.k. Bunday so'zlar qo'llanilishiga ko'ra ikki turga bo'linadi: har ikkala sememasi ham bugungi kunda faol qo'llaniladi: odamning tomiri (bosh semema), daraxtning tomiri (ko'chma semema); biri nofaol, biri faol qo'llaniladi: kamonning o'qi (nofaol), miltiqning o'qi (faol).

Til egalarining tafakkur faoliyati ta'sirida hosil bo'ladigan semantik muvozanatsizlik ma'no tizimida semalarining tartibsiz harakatini yuzaga keltiradi. Shu tartibsizlikning tartiblilikka o'tishini ta'minlovchi ichki ta'sirlar, kuchlar ma'nuning tarkiban bo'linishi, bir holatdan boshqasiga o'tishi, bir nom ostida bir nechta ma'nolarning birlashib, o'zaro bir-biriga moslashishi va bir butunlikni hosil qilishiga olib keladi. Ma'no taraqqiyoti natijasida oldingi ma'nolar yuqolishi kuzatiladi. Keyingi ma'nolar taraqqiy etib, tashqi va ichki ta'sirlar natijasida o'zgarishda, rivojlanishda bo'ladi. Shunga ko'ra aytish mumkinki ko'p ma'noli so'zlarning sememalari vaqt o'tishi bilan torayishi yoki kengayishi mumkin. Masalan, jon so'zining O'TILDa o'n to'rtta ma'nosi keltirilgan[4]. Shulardan o'Ichovni bildirib kishi ma'nosida qo'llanilishi bugungi kunda toraygan. M.: biz to'qqiz jon edik. So'zning ma'no tarkibiga ta'sir etuvchi omillar ko'p bo'lib, shu bois u doimo o'zgarishda taraqqiyotda bo'ladi. Dastlabki ma'nolar unutilib keyingi ma'nolar bosh ma'no sifatida izohlanishi kuzatiladi. "Masalan, tila- fe'lining dastlabki ma'nosi til- leksemasining 'nutq', 'nutq a'zosi' ma'nosi bilan bog'lanadi ('ayt-'). Ammo tila fe'lining bu ma'nosi hozir unutilgan. Endi bu leksemaning to'ng'ich bosh ma'nosi deb 'so'ra-' ma'nosi ko'rsatiladi. Avvalgi ma'noga nisbatan keyingisi asli hosila ma'no bo'lib, hozir to'ng'ich bosh ma'noga aylangan: Tila tilagingni kabi"[2].

Sememalarining tarkiban kengayishi va bo'linishi natijasida monosemantik so'zlar polisemantik so'zlarga aylanishi mumkin. M., internet leksemasi neologizm bo'lib, O'TILDa bir ma'noli so'z sifatida izohlangan[4]. Uning sememasini "umumjahon kompyuter tarmog'i". Bugungi kunda so'zlashuv tilida bizning xotin internet (vazifadoshlik asosida hosil qilingan semema) tarzida jumlalar ishlatalmoqda. Demak, vaqt o'tishi bilan bu so'z ham polisemantik so'zga aylanishi kutiladi.

Xullas, sememalar tashqi, ya'ni sub'ektiv ta'sirlar hamda semalar doirasida hosil bo'ladigan ichki ta'sirlar natijasida o'zgarishga uchraydi. Ichki ma'noviy ta'sirlar semema tarkibidagi semalar harakatini tartibsizlikdan tartiblilikka o'tishini va sememaning tarkiban bo'linib, butun-bo'lak munosabatida bir nom ostida birlashuvini ta'minlaydi. Bir nom ostida birlashgan ma'nolar qatori polisemiya, polifunktсиyani hosil qiladi. Ma'no tarkibidagi bunday o'zgarishlarga sabab bo'luchchi tashqi va ichki ta'sirlar manbaini aniqlash ma'no tahsiliga dikursiv-sinergetik yondashuv zaruratini tug'diradi. Ma'no tarkibida semalar harakatining tartibsizlikdan tartiblilikka o'tish jarayoni sinergetik qonuniyatlariga bo'yusunishini ta'kidlagan holda aytish mumkinki, ma'no shakllanishi va taraqqiyotini

fluktuatsiya, bifurkatsiya, entropiyani aniqlagan holda o'rganish ularni harakatga keltiruvchi ichki kuchlar va uning hosil bo'lish manbaini aniqlash imkonini beradi. "Barqaror holatdan og'ish, tartibsizlik, xaos fluktuatsiya, rivojlanishning ikkiga ayrilib tartibga tushish holati bifurkatsiya sanaladi. O'tish jarayonida bir necha tarmoqqa ajralishi polifurkatsiya holati ham bo'lishi mumkin"[3]. Ma'no taraqqiyotida ayni shu jarayonlarning kechishi ko'p ma'noli, omonim so'zlarning hosil bo'lishiga olib keladi.

Borliqda ro'y beradigan voqeа-hodisalar tasviri, tafsifi tilda ba'zan bir so'z orqali ifoda topadi. Masalan kunlar iliqlashgan, daraxtlar gullagan, tabiat qayta jonlangan payt bahor deb nomlanadi. Qarindoshlar, qo'ni qo'shni yig'ilib, o'tkaziladigan bazm to'y deb nomlanadi va uning turlari ko'p: xatna to'yi, beshik to'yi, nikoh to'yi va hakazo. Ularning hammasi har xil tashkillashtirilsa-da bir nom bilan to'y deb nomlanadi. So'zning ma'no tarkibi bilimlar umumlashmasidan iborat deb tasavvur etsak, ma'no ko'chishi natijasida ikki so'z zamirida to'plangan bilimlarning to'qnashuvi va bir-biriga ta'siri hosil bo'ladi, natijada yangi bir ma'no yaraladi. To'y ma'nosining nahor so'zi tarkibiga ko'chishi paytg'a aloqadorlik asosida amalga oshadi va bunda to'y so'zining ma'no tarkibi umumlashma tushunchadan alohidalanish tomon siljiydi. To'y va nahor so'zining ma'nolari birikishidan nahor (Nahorga bordik. Nahor leksemasi orqali saharda bo'ladi) to'y tushunilmoxda) so'zining yangi bir ma'nosini hosil bo'ladi. Bunday ma'no o'zgarishlari ma'no taraqqiyotiga xos bo'lgan umumiyyadan xususiyga o'tish qonuniyatasi asosida amalga oshadi. Bir so'z orqali turli ma'nolar, tushuncha, axborot, bilimlarni ifodalash imkoniyati mavjud. Har bir inson o'z tafakkur tarziga mos holda bilim hosil qiladi va uni so'z orqali ifoda etadi. Bu bilimlar so'z ma'nosiga ta'sir etadi. Bilimning har bir inson tomonidan o'ziga xos tarzda egallanishi va har bir insonning o'z bilim doirasida ma'no taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatishi ma'no tarkibida semantik tartibsizlikni hosil bo'lishiga sabab bo'ladi. Semema, semalarining bir-biriga ta'siri ma'no tarkibida o'zgarish hosil qiladi. Semalarining bir-biriga qo'shilish, moslashib ketishi yangi bir sememani vujudga keltiradi. Semema tarkibiga kirib kelgan semalar semema tarkibining o'zgarishiga sabab bo'ladi, nutq jarayonida ba'zan so'z tarkibiga kirib kelgan pragmatik ma'no shu so'zning lug'aviy ma'nosiga zid bo'ladi. M., eshikni yop gapidagi yop so'zi "ochiq" manosini, eshikni och gapida och so'zi "yopiq" manosini ifodalaydi, natijada enantiosemiya yuzaga keladi. Bunday qarama-qarshiliklarning hosil bo'lishi so'zning ma'no doirasini fahmiy tushunchalar bilan boyitadi. Hissiy va fahmiy idrok mahsuli bo'lgan bilimlar o'rtasidagi zidlanishlar ma'no ko'lamini kengaytirib mantiqiy mulohaza yuritishga undaydi. So'zda assotsiativ ma'no ta'sirida pragmatik ma'no hosil bo'lishi kuzatiladi va buning natijasida ko'pincha presuppozitsiya yuzaga keltiradi. M., yomg'ir so'zining ma'no tarkibiga "soyabon" assotsiativ manosining kirib kelishi tashqariga chiqayotgan kishiga Yomg'ir yog'yapti deyilganda "soyabon" ma'nosini tushunishiga sabab bo'ladi. Bu gap orqali Soyabonni ol deyilganini tushunish mumkin bo'ladi. Yomg'ir so'zining "soyabon" ma'nosini bildirishiga sabab bu so'zlarning bir assotsiativ maydonga mansubligidir. Bir leksik-semantik, assotsiativ maydonlarga mansub so'zlar ba'zan ma'no tarkibiga shu maydon so'zlarini sema sifatida kiritish imkoniyatiga ega bo'ladi. M., yomg'ir va soyabon so'zleri bir assotsiativ maydonga mansub, shuning uchun soyabon so'zi yomg'ir so'zining ma'no tarkibiga sema sifatida birikadi. Yoki yomg'ir so'zi soyabon so'zining ma'no tarkibini kengaytirishga xizmat qiladi.

Ko'p ma'noli so'zlarning ma'nolari semema yoki sema shaklida bo'ladi. Semema so'z birikmasi yoki gap qolipida sema va emalar esa so'z shaklida bo'ladi. Semema tasavvurda yaxlit bir obrazni gavdalantiradi. Sema va emalar esa shu yaxlitlikning qismi, yoki belgilarini bildiradi. M.,

kulcha so'zi "kichkina, dumaloq, qizg'ish non" sememasini bildiradi. Bu semema tuzilishiga ko'ra so'z birikmasi qolipida bo'lib, u to'rtta sema "kichkina", "dumaloq", "qizg'ish", "non" semalaridan iborat va bu semalar so'z shaklida ifodalangan. So'z birikmasi tobe-hokim qismidan iborat bo'lganidek, semema tarkibi ham tobe-hokim semalardan iborat bo'ladi. Kulcha so'zining "kichkina, dumaloq, qizg'ish non" sememasidagi "non" semasi hokim sema, uning belgisini bildirib, izohlab turgan "kichkina", "dumaloq", "qizg'ish" semalari esa "non" semasiga tobe semalar bo'ladi. Hokim sema so'zlarini turkumlashga asos bo'luvchi sema bo'lib, so'z hokim semasiga ko'ra bir so'z turkumiga mansub bo'lsa, tobe semalariga ko'ra turli so'z turkumlariga doir ma'no, vazifalarga ega bo'ladi. Kulcha so'zining "non" semasi asosiy sema bo'lib, shu semaga ko'ra kulcha so'zi "narsa", "predmet" grammatic ma'nolariga ega bo'ladi va shu grammatic ma'nolarida kulcha so'zi ot so'z turkumiga mansub bo'ladi. Nima? so'rog'iya javob bo'ladi. Egalik, kelishik qo'shimchalar, ko'makchilarini olib semantik o'zgarishga uchraydi. Kulcha so'zining "yumaloq", "qizg'ish", "kichkina" kabi semalari belgi bildirish xususiyatiga ega bo'lgani uchun kulcha so'zi nutqda belgi bildirish vazifasiga ham ko'chadi. M., kulcha yuz birikmasida kulcha so'zi "dumaloq", "qizg'ish", "kichkina" kabi belgilardan birini yoki hammasini anglatib turadi. Shuningdek, kulcha yuz birikmasida boshqa belgilar ya'ni "shirin", "yoqimli" kabi belgilar ham anglashilishi mumkin. Buni qanday tushunish muloqot ishtirokchilarining idrok, tasavvur olamiga bog'liq bo'ladi. Unda kulcha so'zi orqali bu belgilardan bittasi, bir nechta, yoki barchasi tushunilishi mumkin. Bu jarayon insonning idrok qobiliyatiga bog'liq tarzda kechadi. Ma'no idrokidagi bunday farqlilik so'zni har xil tushunish va izohlashga sabab bo'ladi. Bunday yondashuvlar ma'no taraqqiyotiga ta'sir etadi va yangi semalar, sememalarini vujudga keltiradi. Kulcha so'zi narsani va shu narsaning belgilari o'xshash belgilarni nomlash xususiyatiga ega. M., kulcha yedim. Kulcha yuzli. Kulcha so'zining ma'no taraqqiyoti misolida aytish mumkinki, ko'p ma'noli so'zlarning ma'nolari tartiblashda sememaning hokim va tobe semalarini vazifalariga e'tibor qaratiladi. Hokim semaga ko'ra bosh ma'no, tobe semalar ijrosiga ko'ra ko'chma ma'no shakllanadi. M., Kulcha so'zining "non" semasini bildirishiga ko'ra o'z (bosh) ma'nosini, "yumaloq", "qizg'ish", "kichkina" kabi semalarni bildirishiga ko'ra ko'chma ma'nosini belgilanadi. Ko'pgina so'zlar hokim semasini ifodalovchi so'z bilan bir paradigmaga mansub bo'ladi. So'z o'z hokim semasini atovchi so'z bilan umumiylilik-xususiylik, butun-qism, sinonimik, antonimik, inkor munosabatida bo'ladi. M., Kulcha so'zining hokim semasi "non". Non va kulcha so'zi bir uyaga mansub. Tom soldik gapida tom so'zining hokim semasi "uy" bo'lib, uy va tom so'zleri butun-qism munosabatida bir uyani tashkil etadi. Hokim sema so'z ma'nosini tartibotga keltiruvchi asos (o'zak) ma'no bo'lib, tobe semalardagi o'zgarishlar polisemiyani, hokim semadagi o'zgarishlar omonimiyani hosil qiladi.

**Xulosa.** So'z ma'nosini tarkibida hosil bo'ladi semantik tartibsizlikka tashqi ta'sirlar, ya'ni til egalarining tafakkur tarzidagi o'zgarishlar sabab bo'ladi. Ma'no tarkibidagi tartibsizlikning tartiblilikka tomon o'zgarishi semalarining bir-biriga ta'siri natijasida amalga oshadi. Semalarining grammemalar ta'sirida semema tarkibidan ajrab alohida ma'no ifodalashga o'tishi semema tarkibida bo'linish hosil qiladi, natijada semema va uning tarkibidagi semalar bir nom ostida birlashib polisemiyani hosil qiladi. Polisemianing hosil bo'lishiga metafora, metonimiya, sinekdoxa vazifadoshlik kabilarning ta'siri katta. Ma'noning bir holatdan ikkinchi holatga o'tishi asos bo'luvchi bunday hodisalar polisemiyani hosil qiluvchi asosiy omillardan biridir. So'zlarning turli so'zlar bilan sintagmatik munosabatlarga

kirishuvi natijasida va ellipsiya hodisasi ta'sirida polisemija, polifunksiya, omonimiya hosil bo'ladi. Diskursiv faoliyatda pragmatik ma'nolarning yaratishi, so'zlarning o'zaro assotsiativ munosabatlarga kirishuvi ma'no taraqqiyotiga ta'sir etadi. Ma'no tarkibida yuz beradigan semantik o'zgarishlar,

tartibsizlik taraqqiyot asosidir. Tartibsizlikdan tartiblilikka o'tish jarayonini diskursiv-sinergetik tahlillar asosida o'rganish ma'no taraqqiyotiga ta'sir etuvchi tashqi va ichki kuchlar va ularning hosil bo'lish manbaini, shuningdek, ma'no tuzilishi, qurilishini keng doirada o'rganish imkonini beradi.

#### ADABIYOTLAR

1. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili, 2-kitob. –Toshkent, 2008. – 128 б.
2. Нурмонов А. Танланган асарлар. 1-жилд. – Т.: 2012. – 308 б.
3. Рахматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили, биринчи китоб. Т.: MUMTOZ SO'Z, 2010. – 298 б.
4. Ўзбек тилининг изоҳли лугати (ЎТИЛ). 5 жилдли. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 5-жилд, 2008. – 592 б.